

SUD EKSPERTIZASI JINOYATLARNI OCHISHDAGI MUHIM TERGOV HARAKATI

Majidova Muslima Baxtiyor qizi
Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi
“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi
1-bosqich 32-guruh o‘quvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada muallif tomonidan jinoyatlar tergov qilish va fosh etish jarayonida, ya‘ni surushtiruv, dastlabki tergov va sud protsessida adolatni ta‘minlash uchun muhim bo‘lgan tergov harakatlarida biri bo‘lgan sud ekspertizasi, uning mohiyati hamda ahamiyati xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlari: суриштирув, дастлабки тергов, жиноятларни фаш этиш, далиллар, суд экспертisasi, махсус билим.

Аннотация:

В данной статье рассматривается судебная экспертиза, являющаяся одним из следственных действий, имеющих значение для обеспечения справедливости в процессе расследования и раскрытия преступлений, то есть дознания, предварительного следствия и судебного разбирательства, ее сущность и значение.

Ключевые понятия: дознание, предварительное следствие, раскрытие преступлений, доказывание, судебно-медицинская экспертиза, специальные знания.

Abstract:

This article deals with forensic examination, its essence and importance, which is one of the investigative actions that are important to ensure justice in the process of investigating and exposing crimes, namely interrogation, preliminary investigation and judicial proceedings.



Key concepts: inquiry, preliminary investigation, debunking of crimes, evidence, forensic examination, special knowledge.

Jinoyatlarni o‘z vaqtida ochishda bir qator tergov harakatlari amalga oshiriladi. Bu tergov harakatlarining mohiyati, ularni amalga oshirish tartibi, asoslari va shartlari, umuman protsessual jihatlari o‘zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual kodeksida mustahkamlab qo‘yilgan. Sodir etilgan jinoyatlarni o‘z vaqtida, to‘liq ochishda qo‘llaniladigan tergov harakatlari, avvalo, sodir etilgan jinoyatning mohiyatidan kelib chiqib qo‘llaniladi. Albatta, tergov hakaratlarining barchasi o‘ziga xos mazmun va ahamiyatga ega. Shu sababli ham ularni birini biridan ustun qo‘yish noto‘g‘ri, biroq sud ekspertizasi maxsus bilim talab qilishi bilan ham qiziqarli va muhimroqdir deyish mumkin.

Ekspertiza – bu mutaxassis tomonidan ba‘zi bir masalalarning tekshiruvlar yordamida hal qilinishiga aytiladi. Bu borada fan, texnika, san‘at yoki kasb sohasi bo‘yicha bilimi bo‘lgan shaxs o‘tkazadigan maxsus tekshiruv orqali olinadigan xulosalarni ekspertiza tayinlash bilan erishiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 172-187-moddalari bevosita ekspertiza tergov harakatining protsessual qoidalarini o‘zida aks ettirgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 172-moddasi ekspertiza tayinlash uchun asoslar deb nomlanib, unga ko‘ra ish uchun ahamiyatli holatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni fan, texnika, san‘at yoki kasb sohasi bo‘yicha bilimi bo‘lgan shaxs o‘tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo‘lganda ekspertiza tayinlanadi. Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya, mutaxassislar, xolislarning bunday bilimlarga ega bo‘lishi ekspertiza tayinlash zaruratidan ozod etmaydi.¹

O‘rni kelganda aytib o‘tishni lozim deb o‘ylaymiz, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 173-moddasida ekspertiza tayinlash va o‘tkazishning shartligi bilan bog‘liq masalalar ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, basharti, ish bo‘yicha:

1) o‘limning sababini, yetkazilgan tan jarohatlarining xususiyati va og‘irlik darajasini;

¹ O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksi. Lex.uz/docs/111460.



2) jinsiy aloqada bo'lganlikni, homiladorlik holatini va homilani sun'iy yo'l bilan tushirish belgilarini;

3) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchining yoshini, agar bu haqda hujjatlar bo'lmasa yoki hujjatlar shubha tug'dirsa;

4) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining, ustidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashga doir ish yuritilayotgan shaxsning ruhiy va jismoniy ahvolini hamda ularning g'ayrihuquqiy qilmishni sodir etayotgan paytda o'z harakatlarini idrok etish va idora qilish layoqatini, shuningdek jinoiy javobgarlikning ahamiyatini tushunish, jinoyat protsessida ko'rsatuvlar berish hamda o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qila olish layoqatini;

5) jabrlanuvchining, guvohning ruhiy va jismoniy holatini hamda ular ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni idrok qilish, esda saqlash va so'roq qilganda ifodalab berish layoqatiga ega ekanliklarini, shuningdek jabrlanuvchining jinoyat protsessi chog'ida o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qila olish layoqatini;

6) tanosil va boshqa yuqumli kasalliklarga chalingan, surunkali ichkilikbozlikka va giyohvandlikka duchor bo'lgan shaxslarni davolash zarurligini va imkoniyatlarini;

7) giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar va ularning turi mavjudligini;

8) pul belgilari, qimmatli qog'ozlar va boshqa hujjatlar qalbakilashtirilganligini;

9) portlashlar, halokatlar va boshqa favqulodda hodisalarning texnikaviy sabablarini aniqlash zarur bo'lganda ekspertiza tayinlash va o'tkazish shart.

Ish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni aniqlashda ham, agar buning uchun maxsus bilimlarni qo'llash zarur bo'lsa va bu holatlar isbotlashning boshqa vositalari bilan puxta aniqlanmagan bo'lsa, ekspertiza o'tkazish shart.

Ekspertning bilimi maxsus deyilishining boisi uning bilimi oddiy muammo va masalalar chegarasidan chiqib ketadi, turli fan, texnika nazariyasiga va ularning hozirgi zamon yutuqlariga asoslanadi. Sud va tergov amaliyotida shunday masalalar (savollar) tug'iladiki, ularni ham qilishda malakali mutaxassislar, ya'ni bilimdon kishilar yoki ekspertlarga murojat qilishga to'g'ri keladi. Sanoat, qishloq xo'jalik korxonalari, uy-joy loyihalarining sifati to'g'risida masalani hal qilishda ham ekspertlar qatnashadi. Ular bu qurilishning qanchalik mustahkam, sifatli va loyihaning hozirgi fan-texnika rivojiga to'g'ri kelishi, muhandislik-texnik hisoblar to'g'riligi va shu kabi masalalar bilan shug'ullanadilar. Bunday tashkilotlarda



tegishli mutaxassislar bilan to'ldirilgan maxsus ekspertiza arxitektura qurilish idoralari tuzilgan.

Ishchi va xizmatchilarning ish qobiliyatini yo'qotish darajasini nogironlik darajasini aniqlash, ishlab chiqarishda jarohatlangan kasalning jarohat darajalarini maxsus shifokorlar mehnat ekspert komissiyasi tomonidan tekshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik sohasini har tomonlama takomillashtirish, bu sohadagi muammolar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda mamlakatda sud ekspertizasi nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini shakllantirish, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini yana-da qo'llab-quvvatlash, sud-ekspertlik sohasini o'rta muddatda tizimli isloh qilishning aniq chora-tadbirlarini belgilash maqsadida 2021 yil 5 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6256-son Farmoni² qabul qilindi. Farmonga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021 – 2025 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021 – 2025 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi bo'yicha 2021 – 2023 yillarda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan "yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Sud-tergov amaliyotida ayniqsa shunday masalalar uchraydiki, ularni hal qilishda u yoki bu fan sohasida maxsus bilimlar talab qilinadi. Sud ekspertizasi boshqa davlat organlari va tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan ekspertiza tekshiruvidan farq qiladi. Sud ekspertizasi deganda sud, prokuratura va ichki ishlar organlarining jinoyatchilikka qarshi faoliyatida ularning ehtiyojlarini bajaruvchi davlat ekspertiza muassasalari tizimi tushuniladi.

Sud ekspertizasining birinchi xususiyati shuki, u jinoiy va fuqarolik ishlarini tekshirishda ayrim dalillarni aniklaydi. Holatlar yuzasidan ekspertning xulosasi ish yuzasidan dalil manbai bo'lib, unda ko'rsatilgan faktlar esa dalil bo'lib xizmat qiladi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 5 iyuldagi PF-6256-son Farmoni.



Jinoiy ishni tergov qilishda boshqa holatlar yuzasidan ekspertiza tayinlash masalasi tergov olib borayotgan shaxsning ixtiyori bilan maxsus bilim qo'llash zarurati bo'lishiga qarab hal qilinadi.

Ekspertiza tekshiruvini davlat muassasalari, tashkilotlarida xizmat qiluvchi fan, texnika, hunar yoki san'at sohasida maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassislar o'tkazadilar.

Ekspertiza obyektlari – ish yuzasidan topilgan ashyoviy dalillar: turli izlar, jinoyat quroli sifatida ishlatilgan buyumlar, o'q otish qurollari, portlovchi moddalar, sovuq qurollar, hujjatlar, tirik shaxslarning badani, ruhiy holati, jabrlanuvchining murdasi va hakoza.

Ekspertiza tekshiruvi uchun zarur bo'lgan namunalarni ekspertiza tayinlagan organ xodimi tomonidan ta'minlanadi va ular ham obyektlar qatoriga kiradi.

Ekspertizaning tayinlash tartibiga ko'ra dastlabki va takroriy, asosiy masalalariga qo'shimcha ravishda tayinlanadigan ekspertiza turlari mavjuddir. Murakkab va ko'p obyektli tekshiruvlar yuzasidan bir necha mutaxassis jalb etilib kommissiyaviy ekspertiza tayinlanadi.

Ekspertiza tekshiruviga yuboriladigan obyektlar yuzasidan bir necha turdagi bilim sohalari talab qilingan taqdirda kompleks ekspertiza tayinlanadi. Bu turdagi ekspertizani o'tkazishda masalan, tekshiriluvchi obyektga kriminalistika faniga oid bilimni qo'llash bilan birga tibbiyot, kimyo yoki biologiya sohasidagi bilim ham qo'llanilib zarur bo'lgan masala hal qilinadi.

Ekspertiza tekshiruvida qanday bilim yoki kasb sohasi talab qilinishiga qarab quyidagi tekshiruvlar o'tkaziladi:

Sud tibbiyot va psixiatriya ekspertizasi – Sog'liqni Saqlash Vazirligi qoshidagi byuroda, kriminalistik ekspertizalar, avtotexnik, sud-buxgalteriya va boshqa turdagi tekshiruvlar Adliya Vazirligi qoshidagi ekspertiza ilmiy tekshirish markazida o'tkaziladi.

Respublika Ichki Ishlar mudofaa vazirliklarining maxsus bo'limlarida kriminalistika ekspertizalarning ayrim turlari o'tkaziladi. Jinoiy ishga oid bo'lgan masalalar ba'zi holda Davlat ekspertizasi muassasidan tashqari bo'lgan mutaxassislar tomonidan ham hal etilishi mumkin. San'at, adabiyot sohasida tasviriy va ijodiy asarlarning muallifini aniqlash, ishlab chiqarilgan mahsulot sifati yoki tayorlangan joyini aniqlashda kasb hunarga ega bo'lgan mutaxassislar jalb etiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023-y.
2. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksi. Lex.uz/docs/111460.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 5 iyuldagi PF-6256-son Farmoni.
4. Kriminalistika. Darslik “Adolat” nashriyoti. –T.: 2003-y. 1-jild. Prof. F.A. Abdumajidov, dots.A. Norboyev, dots. R. Alimova va boshqalar.
5. Kriminalistika taktikasi. O‘quv qo‘llanma “Yangi asr avlodi” -T.: 2000-y.
6. Вопросы назначения и производства автотехнической экспертизы в жур. “Следователь” федеральное издание честь и закон №12 М.1999 г.
7. S. Otaxo ‘jaye. R. Alimova. “Sud ekspertizasini tashkil etish va o‘tkazish masalalari” - T.: “Yangi asr avlodi”. 2001-y.

